



Umumta'lim maktabining 2025-2026-o'quv yili kimyo fanini amaliy o'zlashtirish darajasini aniqlash

8-____sinf o'quvchisi _____

F.I.SH.

O'quvchi to'plagan umumiy ball: _____ (maksimal ball: 20)

Rux gidroksidning olinishi, unga kislota va ishqor eritmalarining ta'siri

Ishning maqsadi: Amfoter asoslardan biri bo'lgan rux gidroksidini olish va uning kislotalar hamda ishqorlar bilan reaksiyasini o'rganish orqali amfoterlik xossalarini tajriba asosida tasdiqlash.



Kerakli jihozlar va vositalar: Distillangan suv, o'yuvchi natriy (NaOH eritmasi), rux xlorid ($ZnCl_2$ eritmasi), xlorid kislota (HCl eritmasi), menzurka, probirka va probirka tutgich, shisha tayoqcha, qo'lqop va himoya ko'zoynagi

Xavfsizlik qoidasi

Ishni bajarish tartibini to'liq o'zlashtirmasdan tajribani boshlamang.

Ish stolida ortiqcha jihozlar bo'lmasligi va kerakli jihozlar toza bo'lishi kerak.

Ishni bajarish tartibi

No	Jihozlar	Rux gidroksidning olinishi, unga kislota va ishqor eritmalarining ta'siri
1		Probirkaga 5 ml rux xlorid ($ZnCl_2$) eritmasi quyung. Unga sekin-asta NaOH eritmasi tomizib, shisha tayoqcha bilan aralashtiring.
2		Hosil bo'lgan cho'kmani ikkita probirkaga bo'lib oling. Probirkalarning biriga xlorid kislota ikkinchisiga o'yuvchi natriy eritmasidan quyung. Probirkalarni chayqating.



	Mis (II)-xlorid eritmasi bilan ham yuqoridagiga o'xshash tajribalarni takrorlang.
---	---

Berilgan savollarga javob yozing.

1. O'tkazilgan tajribaning har bir bosqichida sodir bo'lgan o'zgarishning sababini tushuntiring va jadvalni to'ldiring.

Tajriba bosqichi	Jarayon	Kuzatish
$\text{ZnCl}_2 + \text{NaOH}$		
$\text{Zn(OH)}_2 + \text{HCl}$		
$\text{Zn(OH)}_2 + \text{NaOH}$ (ortiqcha)		

2. O'tkazilgan tajriba davomida sodir bo'lgan kimyoviy jarayonlardan 3 tasining reaksiya tenglamalarini yozing.

- _____
- _____
- _____

3. Rux gidroksidi (Zn(OH)_2) va mis(II) gidroksid (Cu(OH)_2) moddalari qanday xossalari bilan bir-biridan farq qiladi?

4. Rux gidroksid suvga solinganida u suvda erimadi. Rux gidroksid erib ketishi uchun suvga qanday modda yoki eritma qo'shish kerak?



PEDAGOGIK MAHORAT VA XALQARO
BAHOLASH ILMIY-AMALIY
MARKAZI



PEDAGOGIK MAHORAT VA XALQARO
BAHOLASH ILMIY-AMALIY
MARKAZI